

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.Yu.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YULDASHOV ABDUMUMIN ABDUGOPIROVICH

**RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH
HUQUQLARNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026-yil

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Table of Contents of the Author’s Abstract of the Dissertation for the Degree
of Doctor of Science (DSc) in Law**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора юридических наук (DSc)**

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich

Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning
huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

Юлдашов Абдумумин Абдугопирович

Совершенствование правовых основ охраны авторского права и смежных прав
в цифровой среде27

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich

Improving the legal framework for the protection of copyright and related rights in
the digital environment.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ58

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.Yu.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YULDASHOV ABDUMUMIN ABDUGOPIROVICH

**RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH
HUQUQLARNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026-yil

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Yu320 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:

Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Kamalov Oybek Axmatovich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Safoyeva Sadoqat Musoyevna
yuridik fanlar doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/2025.27.Yu.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “25” avgust soat 10:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, email: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1518-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “4” avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil “4” avgustdagi 18 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.K.Xodjaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

E.X.Egamberdiev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.X.Fayziev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda raqamli texnologiyalarning bugungi kunda jadal rivojlanishi va internet tarmog'ining global miqyosda keng tarqalishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning mavjud tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. XXI asrning birinchi choragida yuz bergan texnologik inqilob, xususan striming xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, blokcheyn, sun'iy intellekt va almashinmaydigan tokenlar (NFT)ning yuzaga kelishi o'z navbatida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini yaratish, takrorlash va ulardan foydalanish usullarini mutlaqo o'zgartirdi. Natijada, moddiy borliq uchun ishlab chiqilgan an'anaviy mualliflik huquqi va turdosh huquqlar normalari raqamli voqelikning talablariga javob bera olmayotgan holat yuzaga keldi. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyoda 60 foizdan ortiq kompaniyalar raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bilan bog'liq nizoli vaziyatlarda ishtirok etishmoqda¹. Google korporatsiyasi har yili qidiruv tizimidagi qaroqchi kontentlarni o'chirib tashlash bo'yicha dunyo miqyosida 5 milliarddan ortiq so'rovlarni qabul qiladi. Shuningdek, har oyda huquq egalari (mualliflar) tomonidan taxminan 78 million fayllar yuboriladi². Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining nazariy asoslari va mavjud doktrinalarni tushunish raqamli muhitda uni yanada samarali muhofaza va himoya qilish tizimini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahonda raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasiga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda, ayniqsa, bu yo'nalishdagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda mazkur muhitdagi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari maqomi va yaratilish faktini belgilash, internet vositachilar (provayderlar)ning huquqiy maqomi va javobgarligini belgilash, huquq, jamiyat va texnologiyalar o'rtasidagi munosabatlar muvozanati (balansi)ni belgilash, foydalanuvchi kontentining huquqiy muhofazasi va maqomini aniqlash, blokcheyn muhitida asarlardan foydalanishda mutanosoblik, ya'ni "ijtimoiy adolat" tamoyilini belgilash, raqamli muhitda asarlardan foydalanishni monitoring qilish masalalarini o'rganish, internet platformalardan olinayotgan royaltlarni adolatli taqsimlash masalalari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqida 2019-yilda Raqamli yagona bozordagi mualliflik huquqi direktivasi (DCM Directive) va 2022-yilda Raqamli xizmatlar akti (Digital Services Act) qabul qilinishi, AQShda Raqamli muhitda mualliflik huquqi qonuni (DMCA)ning zamonaviy talablarga moslashtirilishi bo'yicha munozaralar, shuningdek Butunjahon intellektual mulk tashkilotining doirasida eshittirish va ko'rsatuv beruvchi tashkilotlari huquqlari bo'yicha yangi shartnoma ustida olib borilayotgan muzokaralar bu sohadagi tadqiqotlarning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasi sohasida muhim yutuqlarga erishdi. Shu jumladan, yaqqol misol sifatida 2019-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "Mualliflik

¹ https://www.wipo.int/amc/en/news/2021/news_0006.html

² <https://dmcaauthority.com/dmca-statistics-trends/>

huquqi shartnomasi” (WCT) hamda “Ijrolar va fonogrammalar shartnomasi” (WPPT)ga qo‘shilishini keltirishimiz mumkin. Biroq, ushbu xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilik va amaliyotga to‘liq va samarali tatbiq etilishi hali to‘liq tugallanmagan deb aytish mumkin. Xususan, “talab bo‘yicha taqdim etish” huquqining aniq mustahkamlanmaganligi, texnik himoya vositalarini chetlab o‘tishga qarshi huquqiy normalarning yetarli emasligi, internet-vositachilar va onlayn platformalar majburiyatining mualliflik huquqi va turdosh huquqlar nuqtai nazaridan tartibga solinmaganligi hamda raqamli muhitga xos istisnalar tizimining mavjud emasligi milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlar deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996), “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlari (2003), “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi (2006), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022) Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Intellectual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2022) hamda “Intellectual faoliyat natijalarini rag‘batlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2025) qarorlari, shuningdek mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida amalga oshirilmoqda.

Dunyoda raqamli muhitda mualliflik va aloqador huquqlarni muhofaza qilish, internet tarmog‘ida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish tartib-qoidalarini takomillashtirish, onlayn-platformalar va internet oraliq vositachilarning (xosting-provayderlar, kontent ulashish xizmatlari) huquqbuzarlik uchun javobgarligi, texnik himoya vositalarini aylanib o‘tishga qarshi yuridik mexanizmlarni joriy etish, raqamli formatdagi asarlardan erkin foydalanish doktrinasining transformasiyasi, matn va ma‘lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun maxsus istisnalar joriy qilish, sun‘iy intellekt yordamida yaratilgan obyektlarning huquqiy maqomi va sun‘iy intellektni o‘rgatishda asarlardan foydalanishning huquqiy oqibatlarini, raqamli yagona bozor sharoitida mualliflik qonunchiligini uyg‘unlashtirish, striming xizmatlari va bulut texnologiyalari orqali

³ Диссертациянинг мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи: www.uj.edu.pl, www.amul.ac.uk, www.ceipi.edu, www.law.unimelb.edu.au, www.civil.law.cam.ac.uk, www.miplc.de, www.ip.mpg.de, www.law.ox.ac.uk, www.law.richmond.edu, www.wcl.american.edu, www.ip.indiana.edu

raqamli kontentni tarqatishda huquqlarni amalga oshirish, onlayn-asarlarni jamoaga yetkazish huquqining chegaralari, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent huquqiy rejimi, mualliflik huquqlarini kollektiv boshqarish tizimining raqamli davr talablariga moslashishi, raqamli kutubxonalar, arxivlar va elektron ta'lim platformalaridagi istisno holatlari, blokcheyn texnologiyalari hamda NFT asosida raqamli aktivlarni himoya qilish, transchegaraviy onlayn huquqbuzarliklarni ta'qib etishning yurisdiktsion muammolari kabi masalalarga oid qayd etilgan xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijasida muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Xususan – raqamli bozorlarda mualliflik huquqi va innovasiyalarni rag'batlantirish, sun'iy intellekt asrida mualliflik huquqining kelajagi hamda raqamli muhitda huquqlarni jamoaviy boshqarish tizimi (Max Planck Institute for Innovation and Competition (Germaniya)), sun'iy intellekt va inson muallifligi talabining mazmuni, raqamli mualliflik huquqi nizolarini muqobil usullarda hal etish hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni ixtiyoriy ro'yxatga olishning amaliy ahamiyati (Oxford Intellectual Property Research Centre (Buyuk Britaniya), raqamli muhitda erkin foydalanish doktrinasining evolyutsiyasi, "internet arxitekturasini"ning mualliflik huquqiga ta'siri hamda onlayn so'z erkinligi va mualliflik huquqi o'rtasidagi muvozanat (Stanford Law School Center for Internet and Society (AQSh), internet oraliq vositachilarning javobgarligi rejimi hamda raqamli mualliflik huquqini huquqiy anglash muammolari (Berkman Klein Center for Internet & Society, Harvard University (AQSh), "text and data mining" uchun istisnalar, raqamli kontentni tarqatishning muqobil kompensatsiya tizimlari, raqamli kutubxonalarning huquqiy rejimi, sun'iy intellektni o'rgatish maqsadida asarlardan foydalanish (Institute for Information Law, University of Amsterdam (Niderlandiya), Yevropa Ittifoqining raqamli yagona bozor to'g'risidagi 2019/790-son direktivasini implementatsiya qilish, "Big Data" va sun'iy intellekt sharoitida axborotlardan foydalanish erkinligi (Centre for International Intellectual Property Studies – CEIPI, Université de Strasbourg (Fransiya), sun'iy intellekt va "machine learning" uchun asarlardan foydalanishning huquqiy oqibatlari (Waseda University (Yaponiya), raqamli huquqlarni boshqarish tizimi (Munich Intellectual Property Law Center (Germaniya)), raqamli yagona bozor sharoitida mualliflik huquqining uyg'unlashtirilishi, Covid-19 pandemiyasi davrida raqamli kontentdan foydalanishning istisno holatlari (Maastricht University, Faculty of Law (Niderlandiya)), onlayn tahdidlarga qarshi mualliflik huquqini ta'minlash va raqamli savodxonlik (Queen Mary Intellectual Property Research Institute (Buyuk Britaniya)), mualliflik huquqining tarixiy-qiyosiy rivojlanishi hamda raqamli eraga o'tish jarayonidagi huquqiy transformasiyalar (Centre for Intellectual Property and Information Law, University of Cambridge (Buyuk Britaniya)) hamda Rossiya Federasiyasi va MDH hududida raqamli muhitda mualliflik va aloqador huquqlar tizimining transformasiyasi, internet tarmog'ida huquqbuzarliklar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari (M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Huquq fakulteti (Rossiya Federasiyasi)) kabi masalalar tadqiq etilgan. Bugungi kunda dunyoda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini raqamli muhitda tartibga solish va uni himoya qilish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: aloqa va axborotlashtirish sohasidagi qonunchilikda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash masalalari; internet provayderlarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar

muhofazasini ta'minlash masalalari; raqamli muhitda intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasini amalga oshirish masalalari; sun'iy intellekt yordamida yaratilgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining maqomi; mualliflik huquqi va turdosh huquqlarini texnik vositalar yordamida himoya qilish masalalari.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslariga doir ayrim masalalar mamlakatimiz olim va tadqiqotchilaridan O.Oqyulov, B.N.Toshev, N.F.Imomov, I.R.Rustambekov, Q.M.Mexmonov, I.B.Yakubova, D.T.Egamova, A.T.Lapasov⁴ va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan.

MDH davlatlarida raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilish masalalari I.A.Bliznets, A.G.Matveev, S.I.Boldirev, Yu.A.Karaulova, N.Yu.Shapalova, R.I.Sitdikova, S.S.Losev, N.V.Sherbak, A.N.Kirsanov⁵ tomonidan o'rganilgan.

Boshqa xorijiy davlatlarda Daniel Davenport, Trapova Alina, Cody Rei-Anderson, Kacper Szkalej, Graeme B. Dinwoodie, Sam Ricketson, Jane C Ginsburg, Christophe Geiger, Lawrence Lessig, Bernt Hugenholtz, Martin Senftleben⁶ kabilar

⁴ О.Окюлов. Правовой статус интеллектуальной собственности. Авторферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. Т. 2000 г. Стр. 58. Имомов Н.Ф. Задачи гражданского кодекса: правовое определение или правовое упорядочение социальных отношений // Review of law sciences. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zadachi-grazhdanskogo-kodeksa-pravovoe-opredelenie-ili-pravovoe-uporyadochenie-sotsialnyh-otnosheniy>. Rustambekov I., Gulyamov S., Ubaydullaeva A. Intellectual Property in the Digital Age: textbook. – Second edition. – T.: TSUL Publish. 2025. – 456 p. Mexmonov Q.M. Kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazasiga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T. 2026-y. – 46 b. Yakubova I.B. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takomillashtirish. Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - T. 2023-y. - 64 b. Egamova D.T. Internetda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish masalalari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T. 2025-y. – 47 b. Lapasov A.T. Virtual makonda mualliflik huquqini ta'minlash masalalari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T. 2026-y. - 46 b.

⁵ Близнец И.А. Право интеллектуальной собственности: учебник // 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Проспект, 2016. - 896 с. // <https://publications.hse.ru/pubs/share/folder/u4wqiudq2/203083481.pdf>. Матвеев А.Г. Цифровое и аналоговое авторское право: различны ли принципы? // Вестник Московского университета им. С.Ю. Витте. Серия 2: Юридические науки. 2022. №3 (34). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovoye-i-analogovoye-avtorskoye-pravo-razlichny-li-printsipy>. Болдырев С.И. Авторские права на объекты, размещенные в сети Интернет, и их защита в Российской Федерации. Авторферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. // <https://www.dissercat.com/content/avtorskie-prava-na-obekty-razmeshchennyye-v-seti-internet-i-ikh-zashchita-v-rossiyskoi-federa>. Караулова Ю.А. Правовое регулирование авторских прав в глобальном информационном пространстве: сравнительный анализ правоприменительной практики. Авторферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. // <https://www.dissercat.com/content/pravovoe-regulirovanie-avtorskiykh-prav-v-globalnom-informatsionnom-prostranstve-sravnitelnyy>/ Шаповалова Н.Ю. Использование объектов авторского права и смежных прав при оказании дополнительных услуг сотовой связи: совершенствование законодательства Республики Казахстан. Авторферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. // <https://www.dissercat.com/content/ispolzovanie-obektov-avtorskogo-prava-i-smeznykh-prav-pri-okazanii-dopolnitelnykh-uslug-sot>. Ситдикова Р.И. Гражданско-правовой механизм охраны частных, общественных и публичных интересов авторским правом. Авторферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук // <https://www.prilib.ru/item/467674>. Лосев С.С. Влияние процесса цифровизации на развитие института авторского права и смежных прав // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D. – 2021. – №6. – С. 102-115. // <https://pravo.by/pravovaya-informatsiya/pravo-sovremennoy-belarusi-istoki-uroki-dostizheniya-i-perspektivy/2021/vliyanie-tsifrovizatsii-na-razvitiye-instituta-avtorskogo-prava-i-smeznykh-prav/>. Щербак Н.В. Авторские и смежные права в системе права интеллектуальной собственности. Монография. – М.: Юрист, 2020. – С. 145–168. // <https://t.dissercat.com/content/avtorskie-i-smeznyye-prava-v-sisteme-intellektualnykh-prav>. Кирсанов Алексей Николаевич, Попович Алексей Анатольевич Обеспечение баланса интересов сторон в области применения технических средств защиты авторских прав // Юридическая наука. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-balansa-interesov-storon-v-oblasti-primeneniya-tehnicheskikh-sredstv-zaschity-avtorskiykh-prav>.

⁶ Trapova A.Y. EU Copyright Law and Machine Learning: A Net of Authorship Claims: PhD thesis, 2021 // https://iris.unibocconi.it/retrieve/b6165c98-6d4f-4ac3-948e-dd43c15463b2/Trapova_Alina_revised%20thesis.pdf. Davenport D. Copyright law has become an exclusive system centred around economic exploitation that now serves

tomonidan internet va telekommunikasiya tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarining huquqiy maqomi o'rganilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan milliy olim va tadqiqotchilar ilmiy ishlari raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini takomillashtirish va u bilan bog'liq munosabatlarning tartibga solishni tahliliga qaratilmagan. Shu nuqtai nazardan raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirishni kompleks tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti Professorlar kengashi majlisining 5-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan yuridik fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, xususan huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining fuqarolik-huquqiy maqomi va uning himoyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy-nazariy, qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, sohaga oid xalqaro hujjatlar hamda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi normalarini milliy qonunchilikka qo'llash mexanizmini ishlab chiqish va taklif berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalar.

Raqamli muhitda barcha turdagi intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilishning nazariy-huquqiy asoslari va maqomini aniqlash va tahlil qilish;

axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlarida mualliflik huquqi va turdosh huquq obyektlarining tutgan maqomi yuzasidan xulosalar ishlab chiqish;

to discourage creativity – A proposal for reform with a focus on the music industry: PhD thesis, 2021 // [https://ore.exeter.ac.uk/articles/thesis/Copyright law has become an exclusive system centred around economic exploitation that now serves to discourage creativity A proposal for reform with a focus on the music industry /29778908?file=56811107](https://ore.exeter.ac.uk/articles/thesis/Copyright%20law%20has%20become%20an%20exclusive%20system%20centred%20around%20economic%20exploitation%20that%20now%20serves%20to%20discourage%20creativity%20A%20proposal%20for%20reform%20with%20a%20focus%20on%20the%20music%20industry%20/29778908?file=56811107). Rei-Anderson C. Copyright, Commodification and the Structure of Digital Media Economies: Independent Podcasting in Context: PhD thesis // [https://openaccess.wgtn.ac.nz/articles/thesis/Copyright Commodification and the Structure of Digital Media Economies Independent Podcasting in Context/22961156?file=40702241](https://openaccess.wgtn.ac.nz/articles/thesis/Copyright%20Commodification%20and%20the%20Structure%20of%20Digital%20Media%20Economies%20Independent%20Podcasting%20in%20Context/22961156?file=40702241). Szkalej K. Copyright in the Age of Access to Legal Digital Content: A study of EU copyright law in the context of consumptive use of protected content: PhD thesis // <https://portal.research.lu.se/en/publications/copyright-in-the-age-of-access-to-legal-digital-content-a-study-o/>. Dinwoodie, G. (2005) "Conflicts and International Copyright Litigation: The Role of International Norms." [https://www.academia.edu/60488179/Conflicts and International Copyright Litigation The Role of International Norms](https://www.academia.edu/60488179/Conflicts_and_International_Copyright_Litigation_The_Role_of_International_Norms). Ricketson S., Ginsburg J. International Copyright and Neighbouring Rights: The Berne Convention and Beyond. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – Vol. 1. – P. // <https://global.oup.com/booksites/content/9780198259466/15519670>. Geiger, Christophe and Frosio, Giancarlo and Bulayenko, Oleksandr, The EU Commission's Proposal to Reform Copyright Limitations: A Good but Far Too Timid Step in the Right Direction (2018). 40(1) European Intellectual Property Review 4 (2018), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3260045>. Lessig L. Code and Other Laws of Cyberspace. – New York: Basic Books, 1999. – P. 24–26. // https://books.google.co.uz/books/about/Code.html?id=swD6jNulNYEC&redir_esc=y. 3. Hugenholtz B. Caching and Copyright: The Right of Temporary Copying // European Intellectual Property Review. – 2000. – Vol. 22(10). – P. 482–493. // <https://dare.uva.nl/id/61e869ff-6c76-4982-98fb-647b0685051a>. Senftleben, Martin, Bermuda Triangle – Licensing, Filtering and Privileging User-Generated Content Under the New Directive on Copyright in the Digital Single Market (April 4, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3367219> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3367219> (<https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3367219>).

mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofazasini Internet va telekommunikasiya tarmoqlarida ta'minlashga doir xalqaro normalarning huquq tizimlarida va amaliyotdagi o'rni bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini himoya qilishning nazariy-huquqiy va texnik jihatlari yuzasidan qonunchilikka tegishli takliflar ishlab chiqish;

mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnik vositalarni qo'llashda manfaatlar va javobgarlikning tengligini ta'minlash masalalari (balans nazariyasi) yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini Web 1.0, 2.0 tarmog'i va blokcheyn (Web 3.0) texnologiyasida muhofaza qilishning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirish;

Xalqaro shartnomalar va ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda O'zbekiston qonunchiligi va mualliflik huquqini raqamli muhitda muhofaza qilishga doir huquqiy normalar va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha taklif berish;

O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk va axborot sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini takomillashtirish bo'yicha taklif berish;

mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv (eshittirish) beruvchi tashkilotlar hamda musiqiy nashriyot uylari tomonidan raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni ta'minlashni ilmiy-amaliy jihatlarni o'rganish va asoslangan xulosalar ishlab chiqish;

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "internet shartnomalari" normalarini O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotiga joriy etish masalalari ilmiy-amaliy jihatlarni o'rganish va takliflar ishlab chiqish;

Internet va telekommunikasiya tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlashning texnik va nazariy qoidalarini amaliyotga tatbiq etish muammolarini aniqlashtirish;

xorijiy amaliyot asosida raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar qoidalariga rioya etilmaganligi yuzasidan fuqarolik javobgarlikni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar tizimidan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishga doir normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va xalqaro hujjatlar, yuridik fandagi konseptual va doktrinal ta'limotlar, ilmiy-nazariy qarash va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, aniq sotsiologik, ilmiy manbaalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mualliflik huquqiga nisbatan mulkiy huquqlarning muallifning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi hamda muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqbuzardan zararlar yetkazilishi faktidan

qat'i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lashini talab qilishga haqli ekanligi asoslantirilgan;

noshirlik faoliyatida mualliflik huquqlarini himoya qilishning asosiy vazifalari mualliflik huquqlariga rioya etilishini ta'minlashdan, shuningdek kontrafakt mahsulotni ishlab chiqarish va tarqatishga qarshi kurashishdan iborat ekanligi, nashriyot mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchilik talablariga, noshirlik faoliyati sohasidagi texnik reglamentlar (milliy standartlar), noshirlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi hamda nashrning chiqarilishiga doir ma'lumotlar tarkibiga mualliflik huquqini himoya qilish belgisi kirishi asoslantirilgan;

reklama to'liq yoki qisman mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyekti bo'lishi mumkinligi, bu holda mualliflik huquqi hamda turdosh huquqlar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikka hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq himoya qilinishi lozimligi asoslab asoslantirilgan;

madaniy faoliyat sohasida fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish (mualliflik huquqi) hamda ulardan foydalanish, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali eshittirish va namoyish etish tashkilotlarining eshittirishlari hamda ko'rsatuvlarini yaratish va ulardan foydalanish (turdosh huquqlar) bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinishi asoslantirilgan;

ijodiy jamoalarning va ijrochilarning xorijiy mamlakatlar hududidagi gastrollari mualliflik huquqiga va turdosh huquqlarga rioya etilishini ta'minlaydigan shartnomalar asosida amalga oshirishi asoslantirilgan;

elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar yoki ma'lumotlar bazalariga nisbatan barcha shaxsiy va mulkiy yoki shartnomaga ko'ra faqat mulkiy huquqlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari dasturlar yoki ma'lumotlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega ekanligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 19-moddasida "asarni simli yoki simsiz aloqa vositalari orqali, shu jumladan har bir kishi o'zi tanlagan joydan va o'zi tanlagan vaqtda kirish imkonini beruvchi usulda ommaga taqdim etish" huquqini mustahkamlovchi norma loyihasi ishlab chiqilgan. Bu norma Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "Mualliflik huquqi shartnomasi" (WCT)ning 8-moddasi talabini to'liq bajarishga va O'zbekistonda striming xizmatlari, raqamli kutubxonalar va onlayn platformalar faoliyatining huquqiy asosini yaratishga xizmat qiladi.

"Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning tegishli moddalariga texnik himoya vositalarini chetlab o'tishni ta'qiqlovchi, chetlab o'tish qurilmalari va xizmatlarini ishlab chiqarish hamda tarqatishni man etuvchi va huquqlarni boshqarish axborotini muhofaza qiluvchi normalar loyihasi tayyorlangan. Bu normalar Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "Mualliflik

huquqi shartnomasi” (WCT)ning 11–12-moddalari⁷ va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “Ijrolar va fonogrammalar to‘g‘risidagi shartnomasi” (WPPT)ning 18–19-moddalari⁸ talablarini bajarish bilan birga ilmiy tadqiqot, ta‘lim va xavfsizlikni tekshirish maqsadlaridagi istisnolarni ham nazarda tutadi.

O‘zbekiston qonunchiligiga uchta raqamli muhitga xos istisno kiritish taklifi asoslab berilgan: vaqtinchalik texnik takrorlashlar istisnosi (streaming va internet-brauzer foydalanishi jarayonida yuzaga keladigan kesh nusxalari uchun), matn va ma‘lumotlarni qayta ishlash (text and data mining) istisnosi (ilmiy tadqiqot maqsadlarida avtomatlashtirilgan tahlil uchun) va raqamli ta‘lim istisnosi (ta‘lim muassasalari tomonidan masofaviy ta‘lim jarayonida foydalanish uchun).

Internet-vositachilar va onlayn platformalar mas‘uliyati bo‘yicha normativ-huquqiy loyiha ishlab chiqilgan. U tranzit, keshlash va xosting faoliyatlari uchun farqlashtirilgan mas‘uliyat rejimini, “xabar berish va olib tashlash” (*notice and takedown*) mexanizmini, qarshi xabar (*counter notice*) tartibini va internet-xizmat ko‘rsatuvchilarning shartli immunitet shartlarini belgilaydi. Shuningdek, onlayn kontent almashish platformalari uchun Yevropa Ittifoqining Raqamli yagona bozordagi mualliflik huquqi Direktivasining 17-moddasi tajribasiga asoslangan alohida majburiyat (ma‘suliyat) rejimi taklif qilingan.

Qonunchilikka qonuniy zararlar institutini kiritish bo‘yicha aniq taklif ishlab chiqilgan: har bir mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishi uchun O‘zbekistondagi hozirgi iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda muayyan diapazon doirasida qonuniy zarar belgilash, qasddan buzish hollari uchun oshirilgan zarar stavkalari va suiiste‘moldan himoya mexanizmlari (asossiz da‘volar uchun javobgarlik, adolatli foydalanish himoyasi) nazarda tutilgan.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzilishi sababli veb-saytlarni cheklash (bloklash) tartibini tartibga soluvchi normalar ishlab chiqilgan. Bu normalar mutanosiblik tamoyiliga rioya qilish, sudning oldindan nazorati, foydalanuvchilar huquqlarining himoyasi va cheklash (bloklash) qaroriga shikoyat qilish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

Efir va kabel tashkilotlari huquqlari ta‘riflarini internet muhitini qamrab oluvchi tarzda kengaytirish, musiqiy sanoatda royalti stavkalarini belgilash mexanizmini yaratish va jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining raqamli muhitdagi faoliyatini tartibga soluvchi normalar (raqamli monitoring, ko‘p hududli litsenziyalash, shaffoflik standartlari) taklif qilingan.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida blokcheyn texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha pilot loyihalar konsepsiyasi ishlab chiqilgan: mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni blokcheyn asosida amalga oshirish, royaltlarni “aqlli shartnomalar” orqali avtomatlashtirilgan tarzda yig‘ish va taqsimlash hamda foydalanish statistikasini shaffof monitoring qilish imkoniyatlari nazariy asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik faoliyatida, Adliya vazirligining normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

⁷ The official website: WIPO (World Intellectual Property Organization) WIPO Copyright Treaty (adopted in Geneva on December 20, 1996) TRT/WCT/001 // available at: <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/295166>

⁸ The official website: WIPO (World Intellectual Property Organization) WIPO Performances and Phonograms Treaty (WPPT)* (adopted in Geneva on December 20, 1996) // available at: <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/295477>

faoliyatida, oliy ta'lim muassasalarining yuridik ta'lim dasturlarida, shuningdek mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar va raqamli platformalar faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, ijtimoiy so'rovnomaning anketa, ekspert so'roviga asoslangan, statistik ma'lumotlarning tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning yakuni yetakchi milliy va xalqaro nashrlarda e'lon qilingan. Bundan tashqari, 72 nafar professor-o'qituvchilar, doktorant va mustaqil izlanuvchilar, 26 nafar madaniyat va shou biznes hamda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar xodimlarining fikrlarini o'rganish maqsadida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga asoslangan. Shuningdek, tadqiqot ishiga ilova qilingan shartnomalar loyihalari tadqiqot davomida aniqlangan nazariy muammolarning amaliy yechimi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda mazkur shartnomalar mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatida foydalanilmoqda. Vakolatli davlat organlari va qonun chiqaruvchi subyektlar tomonidan natijalarning joriy qilinishi bo'yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan. Shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy va nazariy xulosalar, takliflardan kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun normalari ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, fuqarolik qonunchiligining tegishli qoidalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, intellektual mulk huquqi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, kiber huquq fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan kelgusida yangi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonlarida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish tizimidagi mavjud amaliyot mexanizmlarini o'zgartirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy va ommaviy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, amaliyotdagi mavjud bo'shliqlarni tartibga solish va hal qilish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mualliflik huquqi muallifning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi to'g'risidagi hamda muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqbuzardan zararlar yetkazilishi faktidan qat'i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lashini talab qilishga haqli ekanligi haqidagi takliflardan tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasining 20.07.2006-yildagi O'RBQ-42-son

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 35-moddasi birinchi qismi va 65-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 18-maydagi 06-13/16-son dalolatnomasi). Ushbu takliflar mualliflik huquqi muhofaza muddatini uzaytirish orqali muallif va huquq egalarining manfaatlari himoyasini kuchaytirishga hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid qonunchilikka tovon institutini joriy etishga xizmat qilgan;

noshirlik faoliyatida mualliflik huquqlarini himoya qilishning asosiy vazifalari mualliflik huquqlariga rioya etilishini ta‘minlashdan iborat ekanligi va nashrning chiqarilishiga doir ma‘lumotlar tarkibiga mualliflik huquqini himoya qilish belgisi kirishi hamda nashriyot mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga, noshirlik faoliyati sohasidagi texnik reglamentlar, noshirlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi haqidagi takliflar tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasining 26.11.2021-yildagi “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ–731-son Qonuni 7-moddasi, 15-moddasi to‘rtinchi qismi uchinchi xatboshisi hamda 24-moddasi uchinchi qismi yettinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari tomonidan imzolangan 2022-yil 10-avgustdagi 02/4-142-son dalolatnoma). Ushbu takliflar noshirlik faoliyatida mualliflik huquqi himoyasini ta‘minlashga doir mavjud qoida va standartlarni mustahkamlashga xizmat qilgan;

reklama to‘liq yoki qisman mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyekti bo‘lishi mumkinligi, bu holda mualliflik huquqi hamda turdosh huquqlar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunchilikka hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq himoya qilinishi lozimligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 07.06.2022-yildagi O‘RQ–776-son “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 18-avgustdagi 06-13/2094-son dalolatnomasi). Ushbu taklif reklama mahsulotiga nisbatan mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar rejimini qo‘llashga imkon bergan;

madaniy faoliyat sohasida fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratish (mualliflik huquqi) hamda ulardan foydalanish, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali eshittirish va namoyish etish tashkilotlarining eshittirishlari hamda ko‘rsatuvlarini yaratish va ulardan foydalanish (turdosh huquqlar) bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinishiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 20.01.2021-yildagi O‘RQ–668-son “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasi birinchi xatboshisiga o‘zgartirish kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 18-avgustdagi 06-13/2094-son dalolatnomasi). Ushbu taklif madaniy faoliyat sohasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga rioya qilish qoidalarini qonunda mustahkamlashga xizmat qilgan;

ijodiy jamoalarning va ijrochilarning xorijiy mamlakatlar hududidagi gastrollari mualliflik huquqiga va turdosh huquqlarga rioya etilishini ta‘minlaydigan

shartnomalar asosida amalga oshiriladi degan taklifdan O'zbekiston Respublikasining 20.01.2021-yildagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 18-avgustdagi 06-13/2094-son dalolatnomasi). Ushbu taklif ijodiy-gastrol faoliyatida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga rioya etilishini ta'minlashga xizmat qilgan;

Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar yoki ma'lumotlar bazalariga nisbatan barcha shaxsiy va mulkiy yoki shartnomaga ko'ra faqat mulkiy huquqlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari dasturlar yoki ma'lumotlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 06.05.1994-yildagi 1060-XII-son "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasi birinchi qismiga o'zgartirish kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 22-avgustdagi 61-son dalolatnomasi). Ushbu taklif Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini ixtiyoriy ro'yxatga olish tizimini qonunda mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, 12 ta maqola (7 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Doktorlik Dissertatsiyasi kirish, 16 ta paragrafni qamrab olgan 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 222 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlariga mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobasiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi batafsil tarzda yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Raqamli muhit tushunchasi, mohiyati va unda intellektual mulk obyektlarining tutgan o'rni" deb nomlanib, unda raqamli muhit tushunchasi va unda intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilishning nazariy asoslari va tasnifi, axborot texnologiyalarining rivojlanish

bosqichlarida mualliflik huquqi va turdosh huquq obyektlarining tutgan maqomi va tasnifi, patent huquqi obyektlariga nisbatan raqamli muhofaza qilish tartibi va tushunchasi va bu jarayonlarning mualliflik huquqi va va turdosh huquqlar bilan kesishuvi bilan bog'liq masalalar tahlil va tadqiq qilish asosida ochib berilgan.

Raqamli muhit tushunchasi zamonaviy yuridik fanda murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida e'tirof etilmoqda, biroq uning yagona va universal huquqiy ta'rifi hali shakllanmagan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli muhit an'anaviy moddiy muhitdan tubdan farqlanuvchi o'ziga xos belgilarga ega: axborotning raqamli formatda mavjudligi, tarmoqli infratuzilma orqali uzatilishi, foydalanuvchilarning interaktiv ishtirok etishi va ma'lumotlarning hududiy chegaralarsiz harakati. O'zbekiston qonunchiligida raqamli muhit tushunchasining aniq huquqiy ta'rifi berilmagan, bu esa mualliflik huquqi va turdosh huquqlar normalarining onlayn muhitda qo'llanilishida huquqiy noaniqlikka sabab bo'lmoqda. Shu sababli, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga raqamli muhit tushunchasini belgilovchi va unga doir obyektlar tasnifini aniqlovchi norma kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining nazariy asoslari uchta asosiy nazariy yondashuvlarga – *tabiiy huquq nazariya*, *utilitar nazariya* va *propertiyar nazariya*ga – tayanadi, qayd etish kerakki, bu yondashuvlar o'rtasidagi ziddiyat raqamli muhitda yanada keskinlashadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining nazariy asoslarini tushunish raqamli muhitda uni samarali muhofaza qilish tizimini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Yuridik adabiyotlarda mualliflik huquqining falsafiy asoslanishi bo'yicha bir nechta yondashuv mavjud bo'lib, ularning har biri mualliflik huquqining mohiyati va maqsadini turlicha izohlaydi. Ta'kidlash kerakki, tabiiy huquq nazariya bugungi kelib o'zgargan, tadqiqotda ushbu nazariya "*tabiiy adolat huquqi*" sifatida keltirilgan va o'rganilgan. Sababi bugungi kunda asar hissa qo'shish miqdori va koeffisientini aniqlash imkoni qiyin. Ma'lumki, *utilitar (rag'batlantirish) nazariya* – asosan anglo-sakson huquq tizimlariga xos bo'lib, u mualliflik huquqini ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va jamoat manfaatini ta'minlash vositasi sifatida ko'radi. Ishda ushbu yondashuv ko'proq "*balans nazariyasi*" nuqtai nazaridan tahlil qilingan va unda uchta asosiy yo'nalish, ya'ni rag'bat (stimul), signal va raqobat masalalari tahlil qilingan. *Proprietar (mulk) nazariyasida* intellektual mulkka bo'lgan huquq xuddi mulkka bo'lgandek qaralishi (ya'ni, teng bo'lishi) lozim. Mazkur nazariya ikkita funksiyadan iborat: *ishlab chiqarish* va *tashkiliy*. Ishlab chiqarish funksiyasi – ijodiy faoliyatni ijtimoiy hayotning turli sohalarida rag'batlantirishdan iborat bo'lsa, tashkiliy funksiyaning maqsadi esa ijod ahlini davlatning moddiy ko'magidan ajratishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan uch nazariy yondashuv o'rtasidagi farq raqamli muhitda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Zero, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar doimo bozor normalari va mualliflik normalari orasida qolib kelgan. Raqamli muhitda bu ziddiyat yanada keskinlashadi: bir tomondan, muallif o'z asari ustidan to'liq nazoratni saqlab qolish huquqiga ega, ikkinchi tomondan esa, raqamli texnologiyalar axborotga erkin kirish va uni almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu nazariy tortishuv O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish jarayonida ham hisobga olinishi zarur, chunki milliy huquqiy tizim an'anaviy ravishda kontinental Yevropa huquq tizimiga yaqin bo'lgan holda, raqamli muhitda anglo-sakson

tizimining amaliy yechimlarini ham o'zlashtirish ehtiyojiga duch kelmoqda. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining yana bir muhim nazariy jihat – bu texnologiya va huquq o'rtasidagi munosabatdir.

Hozirgi kunda raqamli muhitda beshta texnologik bosqich ajratilishi mumkin: matbaachilik, analog texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, internet va global tarmoqlar hamda sun'iy intellekt va blokcheyn bosqichi. Har bir bosqich mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tizimiga yangi muammolar va yangi imkoniyatlarni keltirib chiqargan. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining tasnifi an'anaviy tasnifdan sezilarli farq qiladi. Tadqiqot asosida ushbu obyektlarni to'rt guruhga ajratish taklif qilinadi: an'anaviy obyektlarning raqamli ko'rinishlari, raqamli muhitga xos yangi obyektlar (kompyuter dasturlari, veb-saytlar, multimediali asarlar), raqamli turdosh huquqlar obyektlari (raqamli fonogrammalar, onlayn efir) va tartibga solinmagan yangi obyektlar (NFTlar, metavers obyektlari). O'zbekiston qonunchiligi hozirda asosan birinchi va qisman ikkinchi guruhni tartibga soladi, uchinchi va to'rtinchi guruhlar esa huquqiy bo'shliqda qolmoqda.

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "internet shartnomalari" telekommunikasiya tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining xalqaro huquqiy asosini tashkil etadi. TRIPS bitimining huquqlarni qo'llash bo'yicha qoidalari esa mualliflik huquqini amalga oshirish mexanizmlarini xalqaro darajada standartlashtirgan. O'zbekiston 2019-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "internet shartnomalari"ga qo'shilgan bo'lsa-da, bu shartnomalar qoidalarining milliy qonunchilikda to'liq va samarali tatbiq etilishi uchun qo'shimcha islohotlar o'tkazilishi zarurligini taqozo etmoqda.

Internet tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasi turli huquq tizimlarida turlicha amalga oshirilmoqda. Yevropa Ittifoqi InfoSoc Direktivasi va Raqamli yagona bozordagi mualliflik huquqi Direktivasi orqali onlayn platformalar mas'uliyati tizimini, veb-saytlarni cheklash (bloklash) mexanizmlarini va mualliflik huquqining istisnolari tizimini shakllantirgan. AQSh esa Raqamli muhitda mualliflik huquqi qonuni (DMCA)ning "xabar berish va olib tashlash" (notice and takedown) tizimiga tayanadi. O'zbekiston qonunchiligida internet-vositachilar mas'uliyati, veb-saytlarni cheklash (bloklash) mexanizmi va "xabar berish va olib tashlash" tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan – bu sohadagi bo'shliqlarni bartaraf etish zarur.

Tadqiqotning **"Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni raqamli muhitda muhofaza qilishning muhim jihatlari va rivojlanish bosqichlari"** deb nomlangan ikkinchi bobda raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini muhofaza qilishning nazariy-huquqiy va texnik jihatlari, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnik vositalarni qo'llashda manfaatlar va javobgarlikning tengligini ta'minlash masalalari, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini Web 1.0, 2.0 tarmog'i va blokcheyn (Web 3.0) texnologiyasida muhofaza qilishning o'ziga xos jihatlarining huquqiy asoslari va istiqbollari va ularning huquq va majburiyatlari tadqiq qilingan. Xususan, ushbu davrlar uchun quyidagicha qisqacha tushuntirish berilgan:

Web 1.0: Davr: "Faqat o'qish uchun". Bunda kontent yaratuvchilari ya'ni mualliflar asarni nashr etgan, foydalanuvchilar esa faqatgina o'quvchi rolda

bo'lgan. Interaktivlikni mavjud emasligi sababli qaroqchilik oddiy hol bo'lgan, o'z navbatida mualliflikni isbotlash qiyinchilik tug'dirgan.

Web 2.0: Davr: "Interaktiv internet". Boshqaruv to'liq markazlashtirilgan platformalarga o'tdi (ijtimoiy tarmoqlar, striming xizmatlari) Foydalanuvchilar o'zlari kontent yaratish imkoniyatiga ega bo'lishdi. (*Foydalanuvchi kontenti (user-generated content) – bu Internet foydalanuvchisi tomonidan yaratilgan, erkin tarqatish, qayta ishlash, o'zgartirilishi va boshqa harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo'lgan mediakontent hisoblanadi. Foydalanuvchi kontentini "Vikipediya", "YouTube", "Instagram", "Facebook", "Vkontakte" kabi xosting va striming platformalarida ko'rishimiz mumkin. Foydalanuvchi kontentining o'ziga xosligi shundan iboratki, kontent yaratuvchisi bir vaqtning o'zida muallif, prodyuser va foydalanuvchi ham bo'lishi mumkin.*). Bunda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar platformalardagi mavjud foydalanish tizimlari orqali himoya qilinadi (Youtubedagi Content ID tizimi kabi). Bundagi asosiy muammo mualliflar korporasiyalardan mustaqil emas. Tarmoqlar foydalanuvchi (muallif)ning akkauntini cheklashi (bloklashi), kontentni o'chirishi yoki foydalanishga bo'lgan huquqlarga egalik qilishi mumkin.

Blokcheyn: Davr: "Egalik qilish". Axborot bir kompaniyaning serverida emas, balki turli tarqoq holdagi tarmoqlarda saylanadi. Bu esa asarni raqamli imzo orqali (xesh) aniq sana va vaqt bilan saqlash imkonini beradi. Bu asarni yaratilish faktini tasdiqlaydi. Shuningdek, bunda mustaqil harakatlanuvchi algoritmlar, ya'ni masalan raqamli san'at asarlarni (NFT) sotishda shartnoma avtomatik ravishda kelishuv asosida muallifga, huquq egasiga, agentlarga yoki galereyaga royalti ajratishi mumkin.

Vaqtinchalik texnik nusxalar (RAM nusxalari, kesh nusxalari) masalasi raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining eng muhim va eng munozarali masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligi vaqtinchalik texnik nusxalar masalasini deyarli tartibga solmagan – bu holat striming xizmatlari va oddiy internet-foydalanish jarayonida huquqiy noaniqlik yaratmoqda. Shu sababli, qonunchilikka vaqtinchalik texnik takrorlashlar uchun istisno normasini kiritish zarur. Tarqatish huquqi va raqamli tugash tamoyilining qo'llanilishi masalasi raqamli muhitda hal etilmagan bo'lib qolmoqda. Shunga asosan O'zbekiston qonunchiligi ham raqamli muhitda tarqatish huquqi va tugash tamoyilining qo'llanilishi masalasini aniq tartibga solishi zarur.

Texnik himoya vositalari (TPM) va raqamli huquqlarni boshqarish tizimlari (DRM) mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni amalga oshirishning texnologik mexanizmlariga aylangan, biroq ular bir vaqtning o'zida foydalanuvchilarning qonuniy huquqlarini cheklashi mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, TPMlar qonuniy va noqonuniy foydalanish o'rtasida farq qilmaydi, ular ilmiy tadqiqot, ta'lim va shaxsiy foydalanish maqsadlarini ham to'sishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligi texnik himoya vositalarini chetlab o'tishga qarshi huquqiy himoya mexanizmlarini Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "internet shartnomalari" talablariga muvofiq kuchaytirishi, biroq shu bilan birga ilmiy tadqiqot va ta'lim maqsadlarida oqilona istisnolarni ham belgilashi zarur. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar egalari, foydalanuvchilar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanat (balans nazariyasi)ni ta'minlash raqamli muhitdagi mualliflik huquqi tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston uchun bu

muvozanat mamlakatimiz Konstitutsiyasining 53-moddasida kafolatlangan intellektual mulk huquqi va 67-moddada kafolatlangan axborot olish huquqi o'rtasidagi muvozanat – mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda asosiy yo'l-yo'riq bo'lishi kerak.

Web 2.0 muhitida foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent (UGC) mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tizimiga jiddiy muammolar keltirib chiqargan. O'zbekiston qonunchiligi foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentning mualliflik huquqi maqomi va onlayn platformalar mas'uliyatini aniq belgilamagan – bu masala raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida hal etilishi zarur. “Creative Commons” va boshqa muqobil litsenziyalash tizimlari raqamli muhitda mualliflik huquqini amalga oshirishning muhim mexanizmlariga aylangan. Bu holat raqamli muhitda muallif nomi va obro'sining iqtisodiy daromadidan ham ko'proq qadrlanishini ko'rsatadi. O'zbekiston qonunchiligida “Creative Commons” va shu kabi muqobil litsenziyalash tizimlarining huquqiy maqomi aniq belgilanmagan, bu esa raqamli muhitda ixtiyoriy litsenziyalash amaliyotini qiyinlashtiradi. Blokcheyn texnologiyasi va NFTlarning mualliflik huquqi tizimidagi ba'zi masalalari (raqamli ifodalash, avtomatlashtirilgan savdo, “detsentralizasiya” va mualliflik huquqini almashtirish) to'liq amalga oshmagan. O'zbekiston qonunchiligi blokcheyn va NFTlar bilan bog'liq mualliflik huquqi va turdosh huquqlar munosabatlarini hali tartibga solmagan, bu sohadagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish zarur.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnik vositalarni qo'llashda manfaatlar va javobgarlik tengligini ta'minlash raqamli muhitdagi mualliflik huquqi tizimining eng muhim va eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Bern konvensiyasining “*uch bosqichli test*” tizimi, *adolatli foydalanish* (*fair use*) va *adolatli muomala* tizimlari, texnik himoya vositalarini chetlab o'tishga qarshi normalar va mutanosiblik tamoyili – bularning barchasi turli huquq tizimlarida turlicha shakllantirilgan va qo'llanilmoqda. Zero mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning mulkiy huquqlarini raqamli muhitda qayta muvofiqlashtirish zarur. O'zbekiston qonunchiligi uchun xorijiy tajriba muhim ahamiyatga ega bo'lib, texnik himoya vositalarini huquqiy tartibga solish, foydalanuvchilar huquqlarini ta'minlash va manfaatlar muvozanatini saqlash bo'yicha muvofiq normalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “O'zbekistonda axborot va telekommunikasiya tarmoqlarida mualliflik huquqini muhofaza qilish masalalari” deb nomlanadi. Ushbu bobda O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro shartnomalarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni raqamli muhitda muhofaza qilishga doir huquqiy normalar: nazariya va amaliyot, O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk, aloqa va axborot sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda mualliflik huquqini muhofaza qilishni takomillashtirish masalalari, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv beruvchi tashkilotlar hamda musiqiy nashriyot uylari tomonidan raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni ta'minlash masalalarining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

O'zbekistonning 2019-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “internet shartnomalari”ga qo'shilishi raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasi yo'lida muhim qadam bo'ldi. Biroq, bu shartnomalarning

milliy qonunchilikda to'liq va samarali tatbiq etilishi uchun bir qator huquqiy islohotlar zarur. Texnik himoya vositalarini chetlab o'tishga qarshi huquqiy himoya O'zbekiston qonunchiligida yetarli emas. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "Mualliflik huquqi shartnomasi" (WCT)ning 11-moddasi va "Ijrolar va fonogrammalar shartnomasi" (WPPT)ning 18-moddasi bu borada aniq majburiyatlarni belgilagan bo'lsa-da, milliy qonunchilikda texnik himoya vositalarini chetlab o'tishni ta'qiqlovchi, bunday vositalarni ishlab chiqarish va tarqatishni man etuvchi hamda chetlab o'tish qurilmalari va xizmatlarini ta'qiqlovchi batafsil normalar mavjud emas.

O'zbekiston qonunchiligida raqamli muhitga xos mualliflik huquqi va turdosh huquqlar istisnolari tizimi ishlab chiqilmagan. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 25–33-moddalarida belgilangan erkin foydalanish qoidalari (istisnolar) an'anaviy muhitga mo'ljallangan. Yevropa ittifoqining Raqamli yagona bozordagi mualliflik huquqi Direktivasi esa matn va ma'lumotlarni qayta ishlash (*text and data mining*), raqamli ta'lim va madaniy merosni saqlash uchun yangi istisnolarni kiritgan. O'zbekiston qonunchiligiga vaqtinchalik texnik takrorlashlar istisnosi, matn va ma'lumotlarni qayta ishlash istisnosi hamda raqamli ta'lim maqsadlarida foydalanish istisnosi kiritilishi taklif qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk va axborot sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini takomillashtirish uchun bir qator o'zaro bog'liq islohotlar zarur. Xususan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari ro'yxatini raqamli muhitga xos yangi obyektlar (multimedialli asarlar, veb-saytlar, mobil ilovalar, podkastlar, raqamli san'at) hisobiga kengaytirish, raqamli muhitda tarqatish huquqi va tugash tamoyilining qo'llanilishi masalasini aniq tartibga solish hamda sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlar va NFTlarning huquqiy maqomini belgilash zarur.

O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi kompleks takliflarni shakllantirish mumkin: "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunni Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "Internet shartnomalari" talablariga to'liq muvofiqlashtirish, jumladan "talab bo'yicha taqdim etish" huquqini mustahkamlash, texnik himoya vositalarini chetlab o'tishga qarshi normalarni kuchaytirish va huquqlarni boshqarish axborotini muhofaza qilish; internet-vositachilar va onlayn platformalar majburiyati (mas'uliyati) tizimini yaratish; raqamli muhitga xos istisnolar ro'yxatini kiritish; mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining raqamli muhitdagi faoliyatini tartibga solish va shaffoflik standartlarini belgilash; efir va kabel tashkilotlari huquqlari ta'riflarini internet muhitini qamrab oluvchi tarzda kengaytirish; musiqiy sanoatda royalti stavkalarini belgilash mexanizmini yaratish; blokcheyn texnologiyasini mualliflik huquqi va turdosh huquqlar ro'yxatdan o'tkazish va royaltlarni boshqarishda qo'llash imkoniyatlarini mavjud "pilot" loyihalar orqali sinab ko'rish; sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlar va NFTlarning huquqiy maqomini aniqlash bo'yicha normalarni ishlab chiqish. Raqamli muhitning rivojlanishi mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlaridan bir qator yangi tashabbus va vazifalarni talab qilmoqda. *Birinchidan*, raqamli muhitda asarlardan foydalanishni monitoring qilish texnologik jihatdan murakkabroq: millionlab striming tranzaksiyalarini kuzatish, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentdagi

mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini aniqlash va turli platformalarda foydalanish statistikasini yig'ish zarur. *Ikkinchidan*, ko'p hududli lisenziyalash masalasi dolzarb: internet tarmog'ining global tabiati tufayli asarlar bir vaqtning o'zida ko'plab mamlakatlarda foydalaniladi va har bir mamlakatda alohida lisenziya olish amaliy jihatdan mumkin emas. *Uchinchidan*, royaltlarni adolatli taqsimlash masalasi murakkablashadi: striming xizmatlarida har bir asar uchun juda kichik summalar to'lanadi va ularni ko'p sonli huquq egalariga to'g'ri va o'z vaqtida taqsimlash texnik va tashkiliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari hamda xalqaro tajriba"ga bag'ishlangan bo'lib, unda Butunjahon intellektual mulk tashkilotining "Internet shartnomalari" normalarini O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotiga joriy etish masalalari, telekommunikasiya tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlashning texnik va nazariy normativlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muammolari, xorijiy amaliyot asosida raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar qoidalariga rioya etilmaganligi yuzasidan fuqarolik javobgarlikni takomillashtirish masalalari tahlil etilgan.

Ma'lumki, fuqarolik javobgarlik tizimini takomillashtirish raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yevropa ittifoqi huquqlarni qo'llash direktivasidagi zararni qoplash mexanizmlari, TRIPS bitimining 41–50-moddalaridagi talablar O'zbekiston uchun muhim tajriba manbai hisoblanadi. Qonunchilikka qonuniy zararlar institutini, vaqtinchalik va doimiy da'voni ta'minlash choralar tizimini, raqamli dalillarni yig'ish va saqlash tartibini hamda kontrafakt raqamli kontentni yo'q qilish choralarini kiritish taklif qilinadi. Raqamli muhitda mualliflik huquqi buzilishiga bilvosita ko'maklashuvchi subyektlar (platformalar, xosting provayderlar, NFT bozorlari) majburiyati (mas'uliyati)ni farqlashtirilgan tarzda belgilash zarur. O'zbekiston qonunchiligi ham *bevosita buzuvchi*, *aktiv bilvosita buzuvchi* va *passiv vositachi* o'rtasidagi mas'uliyat farqini aniq belgilashi zarur. Blokcheyn texnologiyasi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishlarining oldini olish va fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlarini avtomatlashtirish uchun yangi imkoniyatlar taklif qiladi.

Shuningdek, muqobil nizolarni hal etish mexanizmlari raqamli muhitda alohida ahamiyatga ega. Raqamli mualliflik huquqi nizolarining ko'pligi va ularning tez hal etilishi zarurligi suddan tashqari mexanizmlar – mediasiya, arbitraj va onlayn nizolarni hal etish (ODR) tizimlari – rivojlantirilishini taqozo etadi. Zero, intellektual mulk huquqi sohasida mutanosiblik tamoyilining qo'llanilishi manfaatlar muvozanatini ta'minlash uchun muhim. Veb-saytlarni cheklash (bloklash) mexanizmi mualliflik huquqi kontekstida aniq tartibga solinishi zarur. Veb-saytlarni cheklash (bloklash) mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni onlayn muhitda qo'llashning samarali vositalaridan biri, biroq u mutanosiblik tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak. Xususan, Yevropa ittifoqi sudi (CJEU)ning *Scarlet Extended v SABAM* ishidagi qarori umumiy filtratsiya tizimining noqonuniy ekanligini belgilab, mutanosiblik tamoyilining chegaralarini aniq ko'rsatgan. O'zbekiston qonunchiligiga mualliflik huquqi buzilishi sababli veb-

saytlarni cheklash (bloklash) tartibi, sudning oldindan nazorati va foydalanuvchilar huquqlarining himoyasi bo'yicha normalar kiritilishi zarur.

Raqamli muhitda fuqarolik javobgarlik an'anaviy modeldan bir qator muhim jihatlarida farq qiladi. *Birinchidan*, bevosita buzuvchi va bilvosita buzuvchi o'rtasidagi farq noaniq bo'lib qoladi. AQShda bevosita mas'uliyatdan bilvosita mas'uliyatga o'tish jarayoni kuzatilmoqda, chunki internet muhitida huquqbuzarlikni bevosita amalga oshiruvchi shaxsni aniqlash ko'pincha imkonsiz yoki amaliy jihatdan foydasiz. Shu sababli, platformalar, xosting provayderlar va boshqa vositachilarning majburiyati (mas'uliyati) masalasi tobora muhim bo'lib bormoqda. *Ikkinchidan*, NFT va blokcheyn texnologiyalari fuqarolik javobgarlikning yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda. *Uchinchidan*, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent kontekstida fuqarolik javobgarlik masalasi alohida murakkab: millionlab foydalanuvchilarning har biri potentsial buzuvchi bo'lishi mumkin va ularning har biriga qarshi individual da'vo qo'zg'atish amaliy jihatdan mumkin emas. Shu sababli, Yevropa Ittifoqining Raqamli yagona bozordagi mualliflik huquqi direktivasi (DCM) Direktivasining 17-moddasi fuqarolik javobgarlikni bevosita foydalanuvchidan platformaga o'tkazish modelini yaratgan – OCSSP huquq egalaridan ruxsat olishi yoki mos choralar ko'rganligi isbotlashi kerak.

XULOSA

Tadqiqotda raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy muammolari kompleks tarzda tahlil qilindi hamda O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi qonunchiligning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy takliflar

1.1. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari avvalombor mavjud an'anaviy huquqiy bir qator nazariyalarni qaytadan ko'rib chiqishni va zamonaviy tendensiyalarga moslashtirishni talab qilishi aniqlandi.

Birinchidan, tadqiqotda tahlil etilgan *tabiiy huquq* (1), *utilitar (rag'batlantirish)* (2) va *propertiar (mulk)* (3) nazariyalari o'z xususiyati va unda shu paytgacha qadar aks etgan mezonlardan kelib chiqib, bir qator o'zgarishlarga uchraganligi qayd etildi. Xususan, *tabiiy huquq nazariyasini XXI asrning (2004-2005) boshidan boshlab "tabiiy adolat huquqi"* sifatida keltirish maqsadga muvofiqligi; *utilitar (rag'batlantirish)* nazariyani esa bugungi kunda "*(muvozanat) balans*", ya'ni muallif (huquq egasi) va jamiyat o'rtasidagi o'zaro tenglik nuqtai nazaridan o'rganish lozimligi; *Proprietar (mulk)* nazariyasi esa ikkita muhim funksiyaga bo'lgan holda, ya'ni *ishlab chiqarish* (ijodiy faoliyat) va *tashkiliy jihatdan o'rganish lozimligi* kerak degan xulosaga kelindi.

Ikkinchidan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar qoidalari o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab bozor iqtisodiyoti normalari va mualliflik huquqining bazaviy normalari (*Adabiy va badiiy asarlarning muhofazasi to'g'risidagi Bern konvensiyasi, JSTning TRIPS bitimi*) orasida qolib kelmoqda. Raqamli muhitda bu ziddiyat yanada keskinlashadi: bir tomondan, muallif o'z asari ustidan to'liq

nazoratni saqlab qolishga harakat qilmoqda va buning natijasida sohadagi mavjud *istisnalar instituti* tomonlar (*muallif va jamiyat*) muvozanatiga jiddiy zarar yetkazmoqda. ikkinchi tomondan esa, raqamli texnologiyalar axborotga erkin kirish va uni almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ham milliy huquqiy tizimimiz an'anaviy ravishda kontinental Yevropa huquq tizimiga yaqin bo'lgan holda, raqamli muhitda anglo-sakson tizimining amaliy yechimlarini ham o'zlashtirish ehtiyojiga duch kelayotganligi tadqiqotda alohida tarzda qayd etildi.

Uchinchidan, dissertatsiyada, raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning an'anaviy konsepsiyalari qayta ko'rib chiqilishi bilan birga, mualliflik huquqi instituti endilikda faqatgina asar va uning moddiy ifodasi bilan bog'liq bo'lgan klassik model doirasida emas, balki *raqamli aylanma, ma'lumotlar oqimi va algoritmlashgan muhit* kabi tushuncha va qoidalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqilishi kerakligi, shu nuqtai nazardan, "raqamli muhit" tushunchasiga nisbatan yagona huquqiy ta'rif ishlab chiqish, uni texnik (internet infratuzilmasi), funksional (kontent aylanmasi) va huquqiy (huquq subyektlari munosabatlari) elementlar birligi sifatida talqin qilish lozimligi kerak degan xulosaga kelindi.

1.2. Dissertatsiyada mualliflik huquqining rivojlanish bosqichlarini qayta tasniflash taklif qilinib, xususan *an'anaviy (analog), raqamli va algoritmlashgan (sun'iy intellekt ishtirokidagi)* bosqichlar ajratib ko'rsatildi. Bu esa mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning kelgusidagi "transformatsiya" jarayonlarin bashorat qilish imkonini beradi. Dissertatsiyada mualliflik huquqi va turdosh huquqlarda manfaatlar muvozanati (balans) nazariyasini yangi mazmunda talqin qilinib, "*muallif – jamiyat – raqamli platforma*" uchburchagi doirasida huquqiy muvozanatni ta'minlash konsepsiyasi ilgari surilmoqda.

1.3. Internet-vositachilar (*platformalar, provayderlar, musiqiy agregatorlar v.b.*) huquqiy maqomini mustaqil institut sifatida shakllantirish zarurati asoslandi. Ularni faqat texnik vositachi emas, balki kontent aylanmasi ishtirokchisi sifatida baholash, shu asosda ularning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash taklif etiladi. Shu bilan birga, raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishda texnologik vositalar (DRM, blokcheyn kabi) va huquqiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarurati mavjud.

1.4. Sun'iy intellekt tizimlari yordamida yaratilgan asarlarga nisbatan insonning "*ijodiy hissasi*" mezonini qo'llash orqali mualliflik (yoki huquq egasi) maqomini belgilash konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bunda sun'iy intellekt mustaqil subyekt emas, balki insonning ijodiy faoliyat natijasining vositasi ekanligi hamda insonning ijodiy mehnati mavjud bo'lsagina sun'iy intellekt texnologiya yordamida yaratilgan "mahsulot" asar sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

1.5. Raqamli muhitda mualliflik huquqi tizimi uchta manfaatlar guruhi – huquq egalari, foydalanuvchilar hamda umumiy jamiyat manfaatlari – o'rtasidagi muvozanat tamoyili asosida qurilishi lozim. Texnologik arxitektura (kod) orqali kuchaytirilgan mutlaq huquqlar huquqiy normalar (istisnalar va cheklashlar tizimi) bilan muvozanatlashtirilishi, bu esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida mustahkamlangan intellektual mulk huquqi muhofazasi hamda 67-moddadagi axborot olish huquqi o'rtasidagi muvozanat tamoyiliga mos keladi. Mazkur konsepsiya milliy qonunchilikdagi barcha mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga doir raqamli normalarni baholashning yagona metodologik mezoniga aylanishi kerak.

1.6. Raqamli muhitda internet-provayderlarning majburiyati (ma'suliyati) ularning faoliyat tabiatidan kelib chiqqan holda uch turga – *tranzit (mere conduit)*, *keshlash (caching)* va *xosting (hosting)* faoliyatlari uchun farqlashtirilgan tarzda belgilanishi, onlayn kontent almashish platformalari (OCSSP) uchun esa alohida majburiyat rejimi qo'llanilishi zarurligiga doir takliflar ilgari surilmoqda. Shuningdek raqamli muhitdagi huquqbuzarlar uch toifaga – *bevosita huquqbuzar*, *aktiv bilvosita huquqbuzar* (mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishidan moddiy manfaat ko'ruvchi yoki uni rag'batlantiruvchi platforma yoki vositachi) va *passiv vositachi* (texnik infratuzilma ko'rsatuvchi tranzit provayder) – ajratilib, ularning majburiyati (ma'suliyati) mutanosiblik va bilish "kriteriya"lariga asosan farqlashtirilishi zarur. Ushbu konsepsiya raqamli muhitda qaysi subyekt, qay darajadagi javobgarlikka tortilishini aniq belgilash hamda ifoda erkinligi va tadbirkorlik manfaatlarini ta'minlash imkonini beradi.

1.7. Mualliflik huquqining poydevor mezon bo'lgan «inson ijodiy mehnati» tamoyili raqamli muhitda ham asosiy mezon sifatida saqlab qolinishi taklif etiladi. Sun'iy intellekt faqat yordamchi vosita sifatida qo'llangan va yaratuvchi shaxsning ijodiy hissasi mavjud bo'lgan hollarda mualliflik huquqi tan olinishi; NFT esa mustaqil mualliflik obyekti emas, balki asl asar ustidan huquqni tasdiqlovchi kriptografik vosita sifatida e'tirof etilishi lozim. Ushbu doktrinal yondashuv huquqiy aniqlik va texnologik neytrallik tamoyillariga muvofiq.

1.8. Raqamli muhitdagi obyektlar quyidagi to'rt guruhga ajratilishi taklif etiladi: (a) an'anaviy obyektlarning raqamli ko'rinishlari (raqamlashtirilgan adabiy, ilmiy, badiiy asarlar); (b) raqamli muhitga xos yangi obyektlar (kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazalari, veb-saytlar, multimediali asarlar, mobil ilovalar, podkastlar); (v) raqamli turdosh huquqlar obyektlari (raqamli fonogrammalar, onlayn efir, OTT ijrolar); (g) huquqiy maqomi hali belgilanmagan yangi obyektlar (sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlar, NFTlar, metavers obyektlari, user-generated content). Ushbu tasnif mavjud huquqiy bo'shliqlarni aniqlash va ularni izchil bartaraf etishning ilmiy zamini bo'lib xizmat qiladi.

II. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar

2.1. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuniga raqamli muhitga bag'ishlangan alohida bob kiritish zarur. Ushbu bobda "raqamli asar", "raqamli nusxa", "onlayn platforma", "internet-provayder", "kontent agregator" kabi tushunchalarning huquqiy ta'riflarini mustahkamlash taklif etiladi. Bu esa huquqiy aniqlikni ta'minlash va huquqni qo'llashdagi turli talqinlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

2.2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida asarlarni Internet tarmog'i orqali "omma e'tiboriga yetkazish" mulkiy huquqini aniq ifodalash lozim. Bu norma huquq egasiga o'z asaridan raqamli tarmoqlarda foydalanishni nazorat qilish imkonini beradi.

2.3. Internet-vositachilarning javobgarligini tartibga soluvchi "xabardor qil – olib tashla" (notice and takedown) mexanizmini milliy qonunchilikka joriy etish taklif qilinadi. Ushbu mexanizm huquq egalarining murojaat qilish tartibi, platformalarning majburiyatlari va kontentni olib tashlash muddatlari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bundan tashqari, veb-saytlarni cheklash (bloklash) tartibini qonun

darajasida belgilash, uni faqat sud qarori asosida va mutanosiblik tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshirish zarur.

2.4 Amaldagi qonunchilikda fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, zararni qoplash bilan bir qatorda qonuniy tovon (*statutory damages*) institutini keng joriy etish taklif etiladi. Bu huquqbuzarliklarning oldini olish va huquq egalarining manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini himoya qilish uchun texnologik choralarni (DRM) aylanib o'tishni taqiqlovchi normalarni milliy qonunchilikka kiritish zarur.

2.5. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlarga internet-provayderlar majburiyati (mas'uliyati)ga doir normalarni kiritish. Ushbu qonunlarga quyidagi normalar joriy etilishi taklif etiladi: (a) tranzit, keshlash va xosting faoliyati uchun farqlashtirilgan mas'uliyat rejimi; (b) "xabar berish va olib tashlash" (*notice and takedown*) mexanizmining aniq tartibi (xabar berish talabi, ko'rib chiqish muddati, huquq egasining identifikatsiyasi); (v) qarshi xabar (*counter-notice*) yuborish tartibi; (g) internet-xizmat ko'rsatuvchilar uchun shartli immunitet (*safe harbor*) shartlari; (d) asossiz xabarlar uchun javobgarlik hamda suiiste'molga qarshi kafolatlar.

2.6. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tizimli ravishda buzilgan veb-saytlar faoliyatini cheklash (bloklash) tartibini tartibga soluvchi alohida modda kiritilishi zarur. Taklif etilayotgan modda quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishi lozim: (a) mutanosiblik tamoyiliga qat'iy rioya qilish va kam cheklovchi muqobil choralarni oldin sinab ko'rish; (b) cheklash (bloklash) qarorini faqat sudning oldindan nazorati asosida qabul qilish; (v) bloklanadigan veb-sayt egasiga xabar berish va tushuntirish berish huquqini kafolatlash; (g) cheklash (bloklash) qaroriga shikoyat qilish tartibini belgilash; (d) cheklash (bloklash)ning sabablari bartaraf etilgan taqdirda uni bekor qilish mexanizmi; (e) asossiz cheklash (bloklash) uchun huquq egasining javobgarligi. Shuningdek, "O'zkomnazorat"ning cheklash (bloklash)ni amalga oshirish bo'yicha vakolatlari va tartib-taomillari aniq huquqiy asosda mustahkamlanishi lozim.

III. Huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash bo'yicha amaliy takliflar

3.1. Blokcheyn va NFT texnologiyalarini mualliflik ustuvorligini qayd etish hamda huquqlarning taqsimlangan reestrini yuritishning samarali vositasi sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq. Buning uchun, raqamli platformalarda tegishli infratuzilmani yaratish maqsadga muvofiq.

3.2. Raqamli nashriyot mahsulotlari va raqamli fayllar uchun majburiy texnik talablarni (raqamli suv belgilari, metama'lumotlar) joriy etish orqali huquq egasini identifikatsiya qilish va kontrafakt mahsulotlarni aniqlash jarayonini soddalashtirish lozim.

3.3. Kinoteatrlarda "ekran qaroqchiligi"ga chek qo'yish maqsadida, kontentni himoya qilishning xalqaro standartlariga javob beradigan raqamli qurilmalarni (DCP formatdagi serverlarni) xarid qilish xarajatlarini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmini bir martalik aksiya emas, balki doimiy ko'rinishga keltirish maqsadga muvofiq.

3.4. Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishlarini aniqlash va baholash bo'yicha maxsus uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish zarur. Bu raqamli dalillar bilan ishlash, onlayn huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilish va zararni aniqlashda yagona amaliyotni shakllantirishga yordam beradi.

3.5. Internet-platformalar va davlat organlari o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, huquqbuzar kontentni tezkor aniqlash va bartaraf etish bo'yicha axborot almashinuv tizimini yaratish taklif etiladi. Muallif, shuningdek, huquq egalari uchun onlayn monitoring vositalarini joriy etish va raqamli muhitda huquqlarni himoya qilish bo'yicha institutsional infratuzilmani rivojlantirish zarur.

3.6. Aholi va kontent yaratuvchilar o'rtasida huquqiy ongni oshirish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga hurmatni shakllantirish maqsadida ta'lim va axborot kampaniyalarini kuchaytirish taklif etiladi. Sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va IT mutaxassislar uchun maxsus o'quv dasturlarini joriy etish ham amaliy ahamiyatga ega. Dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy modelini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular nazariy jihatdan asoslangan, qonunchilikni takomillashtirishga yo'naltirilgan hamda huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu takliflarni amalga oshirish O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish tizimini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

3.7. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishlarini internet tarmog'ida o'z vaqtida aniqlash maqsadida kontentni avtomatik taniydigan milliy raqamli monitoring tizimi joriy etilishi (YouTube Content Idning muqobili sifatida) hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb-saytlarning yagona davlat reestri tashkil etilishi taklif qilinadi. Bu tizim muntazam yangilanib, huquq egalari ga ham ochiq bo'lishi kerak.

3.8. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar uchun raqamli muhitda faoliyatni rivojlantirish yo'l xaritasini ishlab chiqish zarur. Unda striming platformalari bilan litsenziya shartnomalari tuzish, onlayn foydalanishni raqamli monitoring qilish, ko'p hududli litsenziyalash (*multi-territorial licensing*) hamda shaffoflik hisobotlari chop etish talablari tegishli standartlar asosida belgilab berilishi lozim.

3.9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida raqamli muhitdagi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha nizolarni tez va arzon hal etish uchun mediatsiya va arbitraj elementlarini mujassamlashtirgan onlayn nizolarni hal etish platformasi (ODR) tashkil etilishi tavsiya qilinadi. Platforma kam qiymatli, ommaviy va tezkor nizolar uchun mo'ljallangan bo'lib, hal qilish qarorlari ixtiyoriy asosda, ayrim toifalar uchun majburiy tusda qo'llanilishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/2025.27.Ю.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЮЛДАШОВ АБДУМУМИН АБДУГОПИРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ОХРАНЫ
АВТОРСКОГО ПРАВА И СМЕЖНЫХ ПРАВ В ЦИФРОВОЙ
СРЕДЕ**

12.00.03 – Гражданское право. Предпринимательское право. Семейное право.
Международное частное право

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации на соискание учёной степени
доктора юридических наук (DSc)

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора юридических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2024.2.DSc/Yu320.

Диссертация на соискание учёной степени доктора юридических наук (DSc) выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, английский, русский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsul.uz) и на Информационно-образовательном портале «ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Официальные оппоненты: **Рузиназаров Шухрат Нуралиевич**
доктор юридических наук (DSc), профессор

Камалов Ойбек Ахматович
доктор юридических наук (DSc), профессор

Сафоева Садокат Мусоевна
доктор юридических наук (DSc)

Ведущая организация: **Университет общественной безопасности**
Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «25» августа 2026 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.07/2025.27.Ю.01.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 35. Тел.: (99871) 233-66-36, факс: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована под № 1518) (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, дом 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «4» августа 2026 года.

(Протокол реестра № 18 от «4» августа от 2026 года.)

Б.К.Ходжаев

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор юридических наук, профессор

Э.Х.Эгамбердиев

Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философии по юридическим
наукам, доцент

Ш.Х.Файзиев

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор
юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание учёной степени доктора юридических наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире сегодня стремительное развитие цифровых технологий и глобальное распространение сети Интернет требуют коренного пересмотра существующей системы авторского права и смежных прав. Технологическая революция, произошедшая в первой четверти XXI века, в частности появление стриминговых сервисов, социальных сетей, облачных технологий, блокчейна, искусственного интеллекта и незаменимых токенов (NFT), в свою очередь, полностью изменила способы создания, воспроизведения и использования объектов авторского права и смежных прав. В результате возникла ситуация, когда традиционные нормы авторского права и смежных прав, разработанные для материальной реальности, не могут соответствовать требованиям цифровой реальности. По данным Всемирной организации интеллектуальной собственности, в настоящее время более 60% компаний в мире вовлечены в конфликтные ситуации, связанные с авторским правом и смежными правами в цифровой среде¹. Корпорация Google ежегодно получает более 5 миллиардов запросов на удаление пиратского контента из поисковой системы по всему миру. Также ежемесячно правообладателями (авторами) отправляется около 78 миллионов файлов². Понимание теоретических основ и существующих доктрин охраны авторского права и смежных прав имеет важное значение для разработки более эффективной системы его охраны и защиты в цифровой среде.

В мире с каждым годом растет интерес к защите авторского права и смежных прав в цифровой среде, особенно при регулировании гражданско-правовых отношений в этом направлении проводятся широкомасштабные научные исследования по вопросам определения статуса и факта создания объектов авторского права и смежных прав в этой среде, определения правового статуса и ответственности интернет-посредников (провайдеров), определения баланса отношений между правом, обществом и технологиями, определения правовой охраны и статуса пользовательского контента, пропорциональности использования произведений в среде блокчейн, то есть установления принципа «социальной справедливости», изучения вопросов мониторинга использования произведений в цифровой среде, справедливого распределения роялти, получаемых с интернет-платформ. В частности, принятие Директивы об авторском праве на цифровом едином рынке (DSM Directive) в Европейском Союзе в 2019 году и Закона о цифровых услугах (Digital Services Act) в 2022 году, дискуссии по адаптации Закона об авторском праве в цифровой среде (DMCA) в США к современным требованиям, а также переговоры по новому договору о правах вещательных организаций в рамках

¹ https://www.wipo.int/amc/en/news/2021/news_0006.html

² <https://dmcaauthority.com/dmca-statistics-trends/>

Всемирной организации интеллектуальной собственности еще раз подтверждают актуальность исследований в этой области.

За годы независимости Республика Узбекистан достигла значительных успехов в сфере защиты авторского права и смежных прав. В частности, в качестве примера можно привести присоединение в 2019 году к Договору Всемирной организации интеллектуальной собственности по авторскому праву (WCT) и Договору по исполнениям и фонограммам (WPPT). Однако полная и эффективная имплементация этих международных договоров в национальное законодательство ещё не завершена. В частности, серьёзными пробелами национального законодательства являются отсутствие чёткого закрепления права «доведения до всеобщего сведения по запросу», недостаточность норм против обхода технических средств защиты, неурегулированность ответственности интернет-посредников и онлайн-платформ, а также отсутствие системы исключений, характерных для цифровой среды.

